

---

## QO'SHTEPALIK YOSHLAR TOMONIDAN HARBIY QISMLARGA SAYOHAT UYUSHTIRILDI



Qo'shtepa tumanida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, bugun bir guruh yoshlar ishtirokida viloyatimizdagi harbiy qismlarga sayohat uyushtirildi. Sayohat oldidan tuman hokimi A.Abdullayev hamda sektor rahbarlari tomonidan yoshlar bilan suhbat o'tkazildi.



Tuman rahbari ushbu sayohatdan samarali foydalanish yuzasidan yoshlarga tegishli takliflarini berib, bunday tadbirlar yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, shijoat va mardlik tuyg'ularini uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-05-01 15:48:57